

BALOG‘AT ILMIDA “TASHBEH” JANRINING XUSUSIYATLARI

Askarov Abdurashid Murodjonovich

O‘zbekiston xalqoro islom akademiyasi

Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi

o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha

falsafa doktori (PhD)

Ushbu maqolada arab tilining balog‘at fani, uning tarkibidagi ilmu-l-bayon, ilmu-l-ma’oniy va ilmu-l-badi’ haqida, ushbu san’atlarning yuzaga kelish tarixi, hamda, ushbu ilmlarni ajdodlardan qolgan og‘zaki va yozma ma’naviy merosni o‘rganishdagi ahamiyati, tashbeh janri haqida bayon qilindi.

Эта статья исследует “илм ал-баляга” и его содержания: илм ал-баян, илм алмааний и илм ал-бадиъ, историю возникновения этих наук, а также их роль в изучение устного и письменного наследия предков и ученых, также описан жанр Ташбех.

This article explores the science of balaghah, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, the history of the occurrence of these sciences, and its role on studying the oral and written heritage of ancestors, scholars and the genre of tashbekh is also described.

Tayanch so‘zlar: arab tili balog‘at fani, balog‘at faniga oid asarlar, ilmul ma’oniy, ilmul bayon, ilmul badi’, tashbeh janri.

Ключевые слова: илм ал-баляга, илм ал-маани, илм ал-баян, илм ал-бади, ташбех.

Key words: science of balaghah, books, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, genre tashbekh.

Taftazoniy balog‘at ilmidagi shartli tashbih (التشبيه المشروط) ning ta’rifida shunday degan:

وهو أن يقييد المشبه أو المشبه به أو كلاهما بشرط وجودي أو عدمي، يدلّ عليه بتصريره اللفظ أو بسياق الكلام.

shartli tashbeh mushabbah (o‘xshatish asosi)ni yoki mushabbah bihi(o‘xshatish etaloni)ni birini yoki ikkalasini aslida mavjud bo‘lgan(وجودي) yoki aslida mavjud bo‘lmagan(عدمي) shart bilan bog‘lanishidir. Bu bog‘lanishda, ochiq-oydin lafzbilan yoki gapning mazmuni orqali u(shart) ga ishora qilinadi¹.

Masalan:

هو كالأسد في الجسارة.

U jasoratda sher kabidir

¹/التفتازاني. المطول على التلخیص. – مصر: سنه، 2015. – ص. 344.

هو-u-o'xshatish asosi

كـ kabi- o'xshatish vositasi

أسد – sher- o'xshatishga asos bo'lgan narsa²

في الجسارة – jasoratda - o'xshatish jihatni.

Rashiduddin Votvot (vaf. 573/1222) balog'atning badi' tarmog'idagi shartli tashbeh ga quyidagicha ta'rif bergen:

التشبيه المشروط : ويكون بتشبيه شيء بشيء آخر، بشرط من الشروط فيقولون لو كان هذا لكان ذاك.

Shart qilingan tashbeh bir narsani boshqa narsa bilan shartlardan biri orqali o'xshatish bo'ladi.

لو كان هذا لكان ذاك (Agar bu bo 'lganda mana bu bo 'lar edi), deyishadi³

Mazkur ikka ta'rifni solishtiradigan bo'lsak, Taftazoniy shartli tashbeh (التشبيه) ning ta'rifida Rashiduddin Votvotning unga bergen ta'rifida kiritilmagan jihatni qo'shish uchun uni kengaytirgani ma'lum bo'ladi.

Roshiduddin Vatvotdan keltirilgan quyidagi bayt har ikki ta'rifni o'z ichiga qamrab olgan :

عز ماته مثل النجوم ثوابلاو لم يكن للثاقبات أفال

Agar to'satdan paydo bo'luvchi yulduzlarda yo'q bo'lib ketish holati bo'limganida edi,

Uning azmu qarorlari to'satdan paydo bo'luvchi yulduzlar singari bo'lardi.

Ushbu misoldagi shart aslida mavjud bo'lgan (وجودي) shart bo'lib, uni aniq bir so'z ko'rsatib turadi. Rashiduddin Votvot shart qilgan “to'satdan paydo bo'luvchi yulduzlar” ning yo'q bo'lib ketish holati esa mavjud hodisadir.

Taftazoniy esa shartli tashbeh (التشبيه المشروط)ga oid ba'zi misollarda shartning mavjud bo'limgan (عدمي) bo'lishi mumkinligi, ba'zan ushbu shartga gap mazmuni orqali ishora bo'lishi mumkinligi, ayrim hollarda esa shart tushirib qoldirilgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan.

Masalan:

هي بدر تسكن الأرض أي لو كان البدر يسكن الأرض ...

U yerda yashaydigan to'lin oydir, ya'ni agar oy yerda yashaganda edi

Ushbu misoldagi agar oy yerda yashaganda edi” degan shart mavjud bo'limgan (عدمي) shatr hisoblanadi.

هذه القبة فلك ساكن أي لو كان الفلك ساكناً

Ushbu gumbaz sokin falakdir, ya'ni agar falak sokin bo'lsa edi”⁴.

Ushbu misoldagi agar agar falak sokin bo'lsa edi” degan shart ham mavjud bo'limgan (عدمي) shatr hisoblanadi.

Shuningdek, Taftazoniy balog'atdagi bayon ilmi tarkibiga yangi istilohlar kiritgan. Masalam:

²Рустамий С. Ўрта асрлар балоғат илмида тиљшунослиқка оид қараашлар. – Тошкент, 2019. – Б. 10.

³معجم المصطلحات البلاغية. ص.343.

⁴التفتازاني. المطول شرح تلخيص مفتاح العلوم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – ص. 344.

1) maxfiy tashbeh (التشبيه الضمني):

Maxfiy tashbehga oid misollarni Jurjoniy alohida fasl qilib ajratib, ularni “ma’nolar ortidan keluvchi tamsil” (التمثيل في أعقاب المعاني) deb nomlagan va Mutanabbiyning ushbu so‘zini unga misol sifatida keltirgan:

فَإِنْ تُقْعِدُ الْأَنَامَ وَأَنْتَ مِنْهُمْ فَإِنَّ الْمَسْكَ بَعْضُ دَمِ الْغَزَالِ

Odamlardan yuqorilab ketsang-da, sen ulardansan,

*Zero, mushk ham kiyikning qonidan bir parcha-ku!*⁵

Ushbu tamsilning maqsadlaridan biri o‘zidan oldingi ma’noni ifodalash imkoniyatining bayoni ekanini aytib o‘tgan⁶.

Qazviniy buni mushabbahga qaytadigan maqsadlar ichida zikr qilgan⁷. Taftazoniy Mutanabbiy baytini keltirgandan so‘ng aytadi: “Agar, ushbu baytdagi tashbeh qaerda? - desangiz, aytamanki, bayt unga aniq dalolat qilmasa-da, zimniy, ya’ni maxfiy tarzda ishora qiladi.

وليس مثل هذا تشبيهاً ضمنياً أو تشبيهاً مكتيناً عنه

Bu kabi tashbeh zimniy tashbeh yoki makniyyan anhubilankelgan tashbeh deb atalsin⁸. Ushbu nomni Taftazoniydan oldin biror olim aytmagan.

Taftazoniy iste’molga kiritgan ikki atamadan zimniy tashbeh (تشبيهاً ضمنياً) balog‘at ilmida ommaviylashgan.

Taftazoniy istiora va tashbeh o‘rtasidagi farq haqida shunday degan:

وَأَمَا إِذَا تَرَكَ الْمَشْبَهَ بِالْكُلِّيَّةِ لَكُنْ أَنْتِ بِوْجَهِ الشَّبَهِ فِيهِ إِشْكَالٌ

Agar (المشبّه) mushabbah to‘laligicha tushurib qoldirilib, (وجه الشّبه) o‘xhsatilayotgan narsa keltirilsa muammo kelib chiqadi.

Masalan:

رأيت أسدًا في الشجاعة

Shijoatda sherni ko ‘rdim

Taftazoniy zamondoshlari va o‘zidan oldingilarning Jurjoniy uslubiga ko‘ra chiqargan xulosalari, ko‘p misollar keltirish yo‘li, ulardan balog‘atga oid nozik jihat va misollarni chiqarishi, ba’zan aqliy taqsimotlarda chegaradan chiqishlariga e’tiroz bildiradi.

Balog‘at ilmining rivojlanish jarayonida tashbihning ayrim xususiyatlariga ko‘ra tasniflari, turlari va nomlanishi ham ma’lum darajada o‘zgarib borgani ma’lum bo‘ldi. Sakkokiy tashbihni uning to‘rt jihatni, ya’ni o‘xshovchi va o‘xshatiluvchi, o‘xhash jihatni, o‘xshatish vositasi va tashbihning maqsadlari asosida o‘rgan. U tashbihning ruknlari ishtirokiga ko‘ra sakkiz turini ko‘rsatib bergen. Tashbeh martabalariga ko‘ra oliy, o‘rta va quyi guruhlarga ajratilgan.

⁵المتنبي. الديوان. ص.123. / أسرار البلاغة. الجرجاني. ص. 123. الإباضح. القزويني. التقىزاني. المطول شرح تلخيص مفتاح العلوم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013 – ص. 331.

⁶أسرار البلاغة. الجرجاني. ص.123.

⁷الإباضح. القزويني. ج. 2. ص. 356.

⁸سعد الدين التقىزاني. المطول شرح تلخيص مفتاح العلوم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – ص. 331

Tashbihning kuchli yoki zaifligida ruknlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Tashbeh o‘xshovchi va o‘xshatiluvchining xususiyatlariga ko‘ra hissiy va aqliy, mufrad va murakkab, malfuf (o‘ralgan), mafruq (ajratilgan), tasviya (tenglashtirilgan), jam’ (to‘plangan) turlarga ajratilgan.

O‘xhash jihatiga ko‘ra haqiqiy va hayoliy; mufrad, murakkab, muta’addid; hissiy va aqliy; tamsiliy va g‘ayritamsiliy; mufassalva mujmal; qarib mubtazal va g‘arib ba’id qismlarga bo‘lingan. O‘xshatish vositasiga ko‘ra mursal, muakkad va tashbihning maqsadlariga ko‘ra maqbul va mardud qismlari mavjud.

Taftazoniy arablar uslublarini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqqan. Bu bilan u balog‘at ulamolari, jumladan, Jurjoniy ishlab chiqqan ba’zi hukmlarni dalillar bilan bayon qila olgan. Ba’zilari uslub tog‘ligi tufayli tor bo‘lib qolgan. Ba’zilari inkor qiluvchi belgisi borligi uchun buzilgan. Buni muallifdan keyin kelgan va uning asarlariga katta e’tibor qaratgan ko‘pchilik anglab yetgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Taftazoniyning Jurjoniya arab balog‘ati borasidagi qarashlariga nisbatan bildirgan fikri turli xil bo‘lgan. Taftazoniy bu qarashlarning ba’zisida Jurjoniy to‘xtalmagan jihatlarni tadqiq qilgan, ba’zisida boshqacha ilmiy qarashlar bildirgan. Taftazoniy arab balog‘atida Jurjoniy ishlab chiqqan ba’zi asos va qoidalarni muhaqqiq olimlar fikriga ko‘ra emasligini isbotlamoqchi bo‘lgan.

Taftazoniyning Qazviniynig balog‘atga oid qarashlarini o‘rgangan va ularni sharhlagan. Taftazoniyning arab balog‘atiga oid ushbu nazariy qarashlari ilmiy haqiqatlarni bahs etish va tadqiq qilishda juda ham qiymatli va muhim ilmiy qarashlar hisoblanadi.

Maqlada Taftazoniyning balog‘at ilmi namoyondalari hisoblangan Jurjoniy, Zamaxshariy, Sakkokiy, Qazviniy va boshqa olimlarning balog‘at ilmidagi istiora, itnob, muhassanat badi’iyya va muhassanat makniyya haqidagi qarashlariga nisbatan ilmiy munosabatlari o‘rin olgan.

Taftazoniy Jurjoniy va Sakkokiyning balog‘at ilmiga oid ishlab chiqqan qoidalari tanqidiy ko‘rib chiqgan, to‘g‘rilagan, kengaytirgan, osonlashtirgan va yangi qoidalari bilan kengaytirgan hamda ularga dalillar keltirgan. Taftazoniy balog‘atga oid matnlarni sharh qilish jarayonida ularga tanqidiy uslubda yondashgani sababli mazkur balog‘atga oid ilmiy qarashlarga munosabatlar bildirgan.

Taftazoniyning fikriga ko‘ra Jurjoniy tomonidan ishlab chiqilgan balog‘atga oid ba’zi qoidalari qat’iy hisoblanmaydi. Taftazoniy mazkur qat’iy bo‘lman balog‘at qoidalari ilmiy munosabat bildirgan va ularni to‘ldirgan. Taftazoniy maoniy ilmini nahv ilmi asosida shakllanadi degan ilmiy qarashga ega bo‘lgan bo‘lib, ushbu ilmiy qarashni Jurjoniy ham bildirgan edi. Lekin, Taftazoniy mazkur ilmiy qarashni tatbiq etish doirasini kengaytirgan.

Taftazoniy ko‘p o‘rinlarda Sakkokiyning balog‘at ilmidagi uslubiga ilmiy

munosabat bildirgan. Ayniqsa, uning tashbehning turlari haqidagi qilgan aqliy taqsimotlariga, istidlolni maoniy ilmining bir bo‘lagi deb hisoblashiga hamda balog‘atga oid bo‘lman ba’zi narsalarni unga qo‘sib yuborganiga e’tibor qaratgan va ularga ilmiy asosda munosabat bildirgan. Bu o‘z navbatida, Taftazoniy Sakkokiyning balog‘atdagi ilmiy uslubidan ko‘ra Jurjoniyning uslubini afzal ko‘rganligini ko‘rsatadi. Taftazoniy bu haqda Sakkokiy va Jurjoniyning tashbehning turlari haqidagi amalga oshirgan aqliy taqsimotlarini va ularga keltirgan misollarni qiyoslash jarayonida aytib o‘tgani ma’lum bo‘ldi. Taftazoniy Sakkokiyning nafaqat balog‘atdagi ilmiy uslubiga, balki, uning boshqa nazariy qarashlariga ham e’tiroz bildirgani buni tasdiqlaydi.

Shuningdek, Taftazoniy Qazviniyning balog‘atga oid ba’zi qarashlariga, balog‘at tarkibi borasida u amalga oshirgan ayrim tasniflarga ilmiy munosabat bildirgan. U Jurjoniyning balog‘atga oid tasniflariga qaytish kerakligini ta’kidlagan. Chunki, Jurjoniyning taqsimotlari balog‘atning ilmiy va nazariy muammolarini ko‘proq qamrab olgani hamda bahs va tortishuvlarga sabab bo‘lmasligini aytgan.

Taftazoniy Sakkokiy va Qazviniydan boshqa balog‘at bilan shug‘ullangan olimlarning qarashlariga ham ilmiy munosabatlari bildirgan. Taftazoniy bu borada Jurjoniy va Zamaxshariyning yo‘lini tutgani, bundan tashqari, u Ibn Asirning qarashlariga ko‘p murojaat qilganligi ma’lum bo‘ldi. Taftazoniy Zamaxshariyning ilmiy merosidagi balog‘atga oid qarashlarini keng qamrovli o‘rgangan va bu borada Zamaxshariyning balog‘atga oid qarashlari asarlari ichida tarqoq holda ekanini ma’lum qilgan. Ba’zi olimlar Zamaxshariyning mo‘taziliya aqidasiiga moyilligini uning balog‘atga oid qarashlariga ham ta’sir qilgan deb hisoblaydi. Taftazoniy esa Zamaxshariyning fikrlariga munosabat bildirishda ob’ektiv yondashgan. Zamaxshariyning aqidasi uning balog‘at borasidagi ilmiy qarashlariga ta’sir qilmagan. Taftazoniyning Zamaxshariyga munosabatlari ba’zi oyatlar ma’nosini tushunishga nisbatan bildirilgan.

Taftazoniy Zamaxshariyning tafsir va hoshiyalarda bildirgan balog‘atga oid ba’zi hukmlariga o‘zgacha ilmiy munosabat bildirgan o‘rinlari ham mavjud. Bularning barchasi Taftazoniyning balog‘atga oid asarlarida o‘z aksini topgani keltirib o‘tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- .1 سعد الدين التفتازانى. الشرح المطول لتلخيص المفتاح. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – 792 ص.
- .2 سعد الدين التفتازانى. مختصار المعانى شرح كتاب تلخيص المفتاح. – اسطنبول: دار الشفاء، 2017. – 704 ص.
- .3 سعد الدين التفتازانى. شرح مفتاح العلوم. – دمشق: دار تقوى الشام، 2020. – 793 ص.
- .1 ابن تغري بردي. المنهل الصافى والمستوفى بعد الوافى. – ج. 11. – القاهرة: دار كتب، 2005. – 356 ص.
- .2 ابن حجر العسقلانى. إنباء الغمر بأنباء العمر. – ج. 2. – مصر: المجلس الأعلى للشئون الإسلامية، 1998. – 582 ص.
- .3 ابن حجر. إنباء الغمر بأنباء العمر. – ج. 1. – مصر: المجلس الأعلى للشئون الإسلامية، 1998. – 502 ص.
- .4 ابن خلدون. تاريخ ابن خلدون. – ليوان، 2008. – ج. 3. – ص. 1101.
- .5 ابن عيسى بن عبد الله الرمانى. النكت في إعجاز القرآن. – مصر: دار المعارف، 1976. – 384 ص.
- .6 ابن الحاجب. فوائد مختصر الأصول. – ج. 1. – بيروت، 2015. – 475 ص.
- .7 ابن المثنى البصري. مجاز القرآن | بتحقيق محمد فؤاد سرکین. – القاهرة: الطبعة، 1381 هـ. الجزء الثاني. – 452 ص.
- .8 ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 2006. – 444 ص.
- .9 ابن رشيق القيرواني. العمدة في صناعة الشعر ونقده وعيوبه. – القاهرة: المكتبة الخانجي، 2000. – 1509 ص.
- .10 ابن حجر العسقلانى. إنباء الغمر بأنباء العمر. – ج. 2. – مصر، 1998. – 377 ص.
- .11 ابن حجر العسقلانى. الدرر الكامنة. – ج. 4. - حيدر آباد: دائرة المعارف العثمانية، 1993. – 505 ص.
- .12 ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. – مصر: مكتبة الشباب، 2017. – 419 ص.
- .13 أبو الفلاح. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. – ج. 8. – بيروت، 1997. – 655 ص.
- .14 أبو العباس عبد الله ابن المعتز. كتاب البديع | شرحه وحققه عرفان مطرجي. – بيروت: مؤسسة الكتب الثقافية، 2012. – 110 ص.
- .15 أبو نصر الفرا بي. كتاب في المنطق. الخطابة | تحقيق وتأليف د. محمد سليم سالم. – مصر: مطبعة دار الكتب، 1976. – 903 ص.
- .16 أبو يعقوب السكاكى. مفتاح العلوم | تحقيق د. عبد الحميد الهنداوى؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعانى-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
- .17 احسن عباس. تعريف النقد الاديب عند العرب. بيروت: دار العلمية، 1984. – ص. 28.
18. Muqaddima. Ibn Xaldun al-Hadramiy. 3-jild. – Bayrut, 1957.
19. Ad-duraru-l-kamina fi a'yani-l-miati-s-samina. Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hajar al-Asqaloniy. 5-jild. – Haydarobod, 1983.
20. Kashfu-z-zunuz an asamili kutub va-l-funun. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. 1-jild. – Damashq, 1994.
21. Rustamiy S. O'rtalasrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent, 2019. – 239 b.
Qur'onda ma'oniy ilmining lingvopoetik asoslari». – Toshkent, 2020. – 52 b.